



**O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA
ULARNING MAMLUKAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI**

Zubaydullayeva Zarina Zarif qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Zarinazubaydullayeva2031@gmail.com

(+99894)0292031

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda ta’limni global standartlarga moslashtirish kabi yo‘nalishlar ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissassi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, islohotlar, raqamli texnologiyalar, pedagogik metodlar, xalqaro hamkorlik, yangi O‘zbekiston strategiyasi, innovatsion yondashuv, global standartlar, o‘qituvchilar malakasi.

**TITLE: EDUCATIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN AND
THEIR IMPACT ON NATIONAL DEVELOPMENT**



Abstract

This article analyzes the reforms implemented within the framework of the *New Uzbekistan Development Strategy* in the education system. The study examines key directions such as improving the quality of education, introducing innovative approaches, applying modern pedagogical methods, and expanding international cooperation. Particular attention is given to the development of teachers' digital competencies, their support and motivation, as well as the alignment of the education system with global standards. Furthermore, the article provides a scientific evaluation of the contribution of educational modernization to the economic, social, and cultural development of the country.

Keywords: Education system, reforms, digital technologies, pedagogical methods, international cooperation, New Uzbekistan Strategy, innovative approach, global standards, teacher qualification.

Kirish

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Zero, ma'rifat jamiyatni jaholat jarligidan olib chiqadigan, kelajak sari yo'l ko'rsatuvchi mash'ala vazifasini bajaradi. Shu bois ta'lim tizimi va yosh avlod tarbiyasi mamlakatning ertangi istiqboli bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ta'lim tizimi har qanday jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan **Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi** mamlakatning kelajagini belgilovchi asosiy hujjatlardan biri bo'lib, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni jahon talablariga moslashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu strategiya

ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va o'qituvchilar malakasini oshirish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishni ko'zda tutadi [1].

Asosiy qism:

1. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish

2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan farmon qabul qilinib, ta'lim sohasida jadal va sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu farmon va unga o'xshash hujjatlar ta'limni sifatli, adolatli va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishni ko'zda tutdi. Natijada umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limida yangi o'quv dasturlari hamda metodikalar joriy etildi. Strategiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim sifatini oshirishdir. Bu jarayon o'qituvchilarning malakasini muntazam ravishda oshirish, zamonaviy metodikalarni joriy etish va yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifati nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham yuksaltirilishi maqsad qilingan.

2. Raqamli texnologiyalar va ta'lim sifati

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynadi. "Elektron ta'lim" tizimi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida interaktiv aloqalarni shakllantirdi, "Maktab" elektron tizimi esa bilimlarni baholash va dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qildi. Shuningdek, "Ziyonet" va "O'qituvchi.uz" kabi platformalar masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirib, chekka hududlardagi o'quvchilar uchun katta imkoniyat yaratdi. Oliy ta'lim muassasalarida MOOC formatidagi kurslarning joriy etilishi yoshlarning xalqaro ta'lim platformalariga ulanishiga sharoit yaratdi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish



maqsadida turli dasturlar va kurslar tashkil etilmoqda. Bu jarayon pedagoglarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish, bilimni taqdim etishning yangi usullarini joriy etish va o'quvchilarga yanada sifatli ta'lim berish imkonini yaratadi.

3. Oliy ta'limdagi islohotlar

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi yangi islohotlar uchun poydevor bo'ldi. Ushbu konsepsiya intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida qamrov darajasini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish bugungi kunda ta'limning asosiy tamoyillaridan biriga aylangan. O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga intilmoqda. Bu jarayon xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, o'quv dasturlarini jahon miqyosida tan olingan tizimlarga moslashtirish orqali amalga oshirilmoqda. Natijada O'zbekiston ta'lim tizimi global ta'lim makoniga integratsiyalashmoqda.

4. Pedagogik metodlar va o'qituvchilar malakasi

Ta'lim metodikalari sezilarli darajada rivojlanib, problem-based learning, inquiry-based learning va cooperative learning kabi metodlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va izlanish ko'nikmalarini shakllantirmoqda. O'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun treninglar, seminarlar hamda "Yosh pedagog" dasturi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, xalqaro malaka oshirish kurslari orqali professor-o'qituvchilarning xorijiy tajribani o'zlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. strategianing muhim jihatlaridan biri



o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashdir. Ularning mehnatini rag'batlantirish, yuqori maosh va ijtimoiy kafolatlar taqdim etish, professional rivojlanish uchun zarur sharoitlar yaratish o'qituvchilarning motivatsiyasini oshiradi.[2]

5. Innovatsion texnologiyalar va ta'lim

Sun'iy intellekt va robototexnika ta'lim jarayoniga joriy etilib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu esa iqtidorli yoshlarning kreativ salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Elektron ta'lim va masofaviy ta'limning rivojlanishi o'quvchilarni global ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkonini bermoqda. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonini soddalashtirib, ularni zamonaviy axborot muhitiga moslashtiradi [3]

Ta'lim tizimidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda [4]. Malakali kadrlar tayyorlash, o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berish raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda [5,6] . Biroq, islohotlarni amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ta'lim resurslarining notekis taqsimlanishi, qishloq joylarda ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi va malakali o'qituvchilar yetishmovchiligi kabi masalalar hal etilishi zarur [7] . Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim tizimi barcha hududlarda teng sharoitlarni yaratishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishi lozim.

Xulosa



O‘zbekistonda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardan anchagina oldindaligi yuksak e’tirofga sazovordir. Ta’limni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik metodlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish O‘zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’limni modernizatsiya qilish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta’lim sifati yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. (2017). *Harakatlar strategiyasi*.
- UNESCO. (2020). *Global Education Monitoring Report*. Paris.
- OECD. (2021). *Digital Competence in Education*. Paris.
- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). *Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha dasturlar*. Toshkent.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). *Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi*. Toshkent.
- World Bank. (2021). *Education and Economic Development: Case of Uzbekistan*. Washington.
- Asian Development Bank. (2022). *Education Sector Assessment in Uzbekistan*. Manila.

